



PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

1(30)

2026





ISSN 2181-3787
E-ISSN 2181-3795

“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”
xalqaro ilmiy-metodik jurnal

«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»
международный научно-методический журнал

“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”
international scientific-methodical journal

№1(30) 2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi OAK Rayosatining 2023-yil 5-maydagi 337-qarori bilan **07.00.00 -
tarix, 13.00.00 - pedagogika, 19.00.00 - psixologiya** fanlari bo‘yicha
dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan
zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Avezova Rohila Abdusharipovna. CLIL texnologiyasi: biologiya fanini chet tili orqali o'qitishning nazariy-amaliy jihatlarini	238
Xamidova Aziza Xayrullayevna. Muammoli ta'lim texnologiyasini molekulyar fizika faniga tatbiq etish metodikasi	243
Sayyora Xodjibayevna Allayarova. Maktablarda fizikadan darsdan tashqari faoliyatda an'anaviy va innovatsion metodlarni integratsiyalash	247
Rasulova Moxidil Tursunaliyevna. Tibbiy ta'limda funksional diagnostik bilimlarni rivojlantirishning xorijiy tajribalardagi o'rni	253
Anvarov Alijon Uktamovich. Development of professional foreign language competence of medical students	258

JISMONIY TARBIYA VA SPORT263

Hafizov Shahriyor Shavkatovich. Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining harakat faolligini oshirishda manbalarning o'rganilishi	263
Maxmudova Maxliyo Maxammadjon qizi. Yosh voleybolchi qizlarning o'yin vaziyatlarini baholash va taktik moslashuvini rivojlantirishda kompleks tayyorgarlik metodikasining samaradorligi.....	268
Musayeva Dilrabo Muhammadjon qizi. Interfaol yechimlar orqali imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida foydalanish modelini ishlab chiqish.....	272

MUSIQA VA TASVIRIY SAN'AT278

S.B.Murtazova. Mustaqillik yillarida musiqa ta'limi va san'ati masalasi va uning tarixshunosligi.....	278
Zikrillayeva Visola Hamrayevna, G'ulomova Shahruza Faxritdinovna. Rangtasvir fanini steam yondashuv asosida tashkil qilishning metodik tizimini takomillashtirish	283
Z.B.Boltayev. Malakali voleybolchilarni integral tayyorgarligini yangicha yondashuvlar asosida takomillashtirish metodikasi	287

PSIXOLOGIYA293

Tajiyeva Nilufar Tohirjon qizi. Sud-psixolog ekspertlarni tayyorlash jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalarining psixologik asoslari.....	293
Abdullayev Feruzbek Maqsud o'g'li. Universitet talabalarida ta'lim motivatsiyasi va o'zini o'zi boshqarishni shakllantirishning psixologik mexanizmlari	299
Xomidova Madina Xusan qizi. Talabalarda muvaffaqiyatga intilish va emotsional intellektning o'zaro bog'liqligi.....	306

AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINING HARAKAT FAOLLIGINI OSHIRISHDA MANBALARNING O'RGANILISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada aksiologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining harakat faolligini oshirish muammosi tahlil qilinadi. Tadqiqotda jismoniy tarbiya sohasida kasbiy tayyorgarlik jarayonida qadriyatlar tizimining o'rni va ahamiyati yoritilib, bo'lajak mutaxassislarining harakat faoliyatiga bo'lgan munosabatini shakllantirishda aksiologik omillarning ta'siri ochib beriladi. Shuningdek, jismoniy tarbiya va sportga oid ilmiy-pedagogik manbalar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda zamonaviy tadqiqotlar tahlil qilinib, ularning bo'lajak o'qituvchilarda harakat faolligini rivojlantirishdagi metodik imkoniyatlari aniqlanadi.

Kalit so'zlar: aksiologik yondashuv, jismoniy tarbiya, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari, harakat faolligi, qadriyatlar tizimi, pedagogik qadriyatlar, jismoniy madaniyat, sog'lom turmush tarzi, motivatsiya, kasbiy kompetensiya, ta'lim jarayoni, pedagogik texnologiyalar.

ИЗУЧЕНИЕ РЕСУРСОВ В ПОВЫШЕНИИ ДВИГАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ НА ОСНОВЕ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Аннотация. В данной статье анализируется проблема повышения двигательной активности будущих учителей физической культуры на основе аксиологического подхода. В исследовании подчеркивается роль и значение системы ценностей в процессе профессиональной подготовки в области физической культуры, выявляется влияние аксиологических факторов на формирование отношения будущих специалистов к двигательной активности. Также анализируются научно-педагогические источники, нормативно-правовые документы и современные исследования по физической культуре и спорту, и определяются их методические возможности для развития двигательной активности у будущих учителей.

Ключевые слова: аксиологический подход, физическое воспитание, будущие учителя физического воспитания, двигательная активность, система ценностей, педагогические ценности, физическая культура, здоровый образ жизни, мотивация, профессиональная компетентность, образовательный процесс, педагогические технологии.

THE STUDY OF RESOURCES IN INCREASING THE ACTIVITY OF THE MOVEMENT OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS ON THE BASIS OF AN AXIOLOGICAL APPROACH

Annotation. This article analyzes the problem of increasing the motor activity of future physical education teachers based on an axiological approach. The study highlights the role and importance of the value system in the process of professional training in the field of physical

education, reveals the influence of axiological factors in the formation of the attitude of future specialists to motor activity. Also, scientific and pedagogical sources, regulatory and legal documents, and modern research on physical education and sports are analyzed, and their methodological possibilities for developing motor activity in future teachers are identified.

Keywords: *axiological approach, physical education, future physical education teachers, movement activity, value system, pedagogical values, physical culture, healthy lifestyle, motivation, professional competence, educational process, pedagogical technologies.*

Kirish. Qadriyatlarining mohiyati, mazmuni, namoyon bo'lish shakllari bilan bog'liq muammolarning tahlili ko'p ming yillik tarixga borib taqaladi. Insonlar eng qadim vaqtlardan buyon hayot mazmuni, atroflarini qurshab turgan olam, dunyoda yuz beradigan turli voqea va hodisalar, o'zaro munosabat va holatlarga baho berishga harakat qilganlar va ushbu jarayonlarning qadri to'g'risida fikr yuritganlar. Davrlar o'tishi, zamon o'zgarishi, jamiyat taraqqiyoti davomida muammolar ko'payib boravergan, ularni hal qilish bo'yicha munosabat tizimi o'zgargan. Qadriyatlar mavzusi bir qator dunyoqarashlarning asosida yotgan, ularning markaziy qismini tashkil etgan.

Asosiy qism. Eng avvalo shuni qayd etish kerakki, qadriyatlar juda sermazmun tushunchadir. Shuning uchun ham ilmiy, badiiy, ommabop adabiyotlarda mazkur tushunchaga oid turlicha yondashuvlarni uchratishimiz mumkin.

Falsafa qomusiy lug'atida qadriyat quyidagicha tavsiflanadi: "Voqe'likdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan falsafiy-sotsialistik va aksiologik tushuncha".

Faylasuf olim V.P.Tugarinovning fikricha, qadriyatlar ma'lum jamiyat va toifaga mansub insonlar turmush tarzi va ma'naviy-axloqiy, madaniyatining asosi bo'lgan tabiat va jamiyat hodisalari mohiyatini anglatuvchi ne'matdir.

Ushbu ma'naviy ne'matlarning qadriyat sifatida e'tirof etilishiga sabab-insonlar ularni e'zozlaydilar, chunki bu qadriyatlar ular hayotida muhim o'rin egallab, turmush tarzini axloqiy normalar asosida tashkil etishga imkoniyat yaratadi. Shu sababli insonlar doimiy ravishda o'zlari tayanadigan qadriyatlarni muhofaza qilish va ulardan hayot va turmush tarzlarida unumli foydalanishga harakat qiladilar.

Olim «qadriyat» va «baho» tushunchalarini bir-biridan farqlash zarurligini uqtiradi. Qadriyat real yoki orzusidagi hodisa (bor narsa yoki ideal) dir, baho esa shu hodisaga munosabatni bildiradi. U yoki bu hodisani qadriyatlarga mansub holda hisoblash, ya'ni uni qadriyatlarga qo'shish yoki qo'shmaslik ana shu munosabatga – ijobiy va salbiy bahoga bog'liq.

Darhaqiqat, qadriyatlarining hayotdagi o'rni va ahamiyati baholash tufayli belgilanadi. Baholash esa insonlarning ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadlari, qiziqishlaridan kelib chiqadi. Ma'lumki, jamiyat a'zolarining ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadlari xilma-xil bo'lib, ko'pincha ular bir-biriga zid kelishi mumkin. Shuning uchun ham muayyan ijtimoiy guruhlar, millatlar, sinflar uchun oliy qadriyat bo'lib, hisoblanib kelingan tabiat va jamiyat hodisalari boshqalar uchun qadriyat bo'lmasligi ham mumkin va aksincha.

Qadriyatlar ijtimoiy xususiyatlarga ega bo'lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Qadriyatlar kishilarning turli sohalaridagi, avvalo, ishlab chiqarish, mehnat sohasidagi faoliyati uchun foyda keltiradigan narsa va hodisalar majmui bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi.

So'ngra asta-sekin sub'ekt faolligining orta borishi oqibatida nisbiy mustaqil soha tarzida amal qila boshlaydi. Tabiat va jamiyat hodisalari inson faoliyati natijasida qadriyat sirasiga kiritiladi. Insonning manfaatlari, ehtiyojlarini qondira olmagan, orzu-istaklari, ideallariga mos kelmaydigan tabiat va jamiyat hodisalarini qadriyat deb baholash noo'rindir.

Masalan, tabiatdagi qazilma boyliklar inson ehtiyojlarini qondirish uchun ishlatila boshlangandan keyingina qadriyatga aylangan. Shungacha ularni boyliklar deb hisoblashimiz lozim.

Adabiyotlar va ilmiy-pedagogik nashrlar tahlili mazmunidan anglanadiki, qadriyat o'zida

avvalo hayot mazmuni va axloqiy kategoriyalar tushunchalarini mujjlashtirib, tegishli ravishda insonlarning o'z faoliyati va jamiyatdagi o'zaro munosabatlari tizimida erkinlik, adolat, ezigulik, ma'suliyat, haqiqat va madaniyat tushunchalarini ifodalaydi.

Qadriyatlar umuminsoniy, jahon xalqlarining mintaqaviy merosi sifatida e'tirof etiladi.

Biz maqolamiz doirasida ilmiy-falsafiy, pedagogik adabiyotlar tahlil natijasida qadriyat tushunchasiga berilgan ta'riflarni izohlashga harakat qildik.

Q.Nazarov ilmiy tadqiqotlarida ushbu muammoning o'ta dolzarbligini ta'kidlash bilan birga, qadriyatlarning mohiyati, shakllari, umuminsoniy kadriyatlar tizimidagi o'rni va ahamiyatini ilmiy tahlil qiladi. Shuningdek, qadriyatlarning etnopedagogik, eksatologik, ilmiy-urfoniy jihatlarini tasniflaydi[3].

T.Abdullaev "Turmush sohasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning dialektikasi" nomli doktorlik dissertatsiyasida turmushdagi milliy va baynalminallik munosabatlarini, ular bilan bog'liq qadriyatlarni tahlil qilgan.

Bizning fikrimizcha qadriyat deyilganda, inson, jamiyat uchun ahamiyatli bo'lgan, shaxs, millat, elat yoki ijtimoiy guruhlarining ma'naviy-madaniy ehtiyojlari taraqqiyotining mahsulini ifodalaydigan, moddiy, nommodiy va ma'naviy boyliklar majmuasi tushuniladi.

Qadriyatlar sermazmun va ko'p qirrali tushuncha bo'lib, o'z ichiga tabiiy, ijtimoiy-siyosiy, xuquqiy, moddiy, ma'naviy, diniy, axloqiy, badiiy-estetik va h.k.larni oladi.

Qadriyatlar ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Hayotimizda ma'naviy va ma'rifiy qadriyatlarning tiklanishi, inson shaxsi muammolari, ma'naviy, axloqiy rivojlanishi, kelajakda buyuk davlat egasi bo'ladigan komil insonni tarbiyalash, voyaga etkazishda keng istiqbol yo'lini ochib beradi[1].

Qadriyatlar xalqimizning tengsiz boyligidir. Uni avaylab-asarash, rivojlantirish, boyitish muqaddas burchimizdir.

Shuning uchun ham bugungi kunda yuksak taraqqiyotga ega bo'lgan davlatlar orasidan o'rin olishga intilayotgan mamlakatimiz fan va ilmiy-axborot texnologiyalarida, madaniy taraqqiyotda o'zining o'rnini topishi zarurdir.

O'zbek diyorida, tarixda ko'p marta bo'ladigan, yangidan o'zimizni betakror va ilg'or, iqtidorli va eng muhimi insonlarga kerakli qadriyatlarimiz tizimi barpo etilmoqda.

Yuksak marralar sari intilayotgan mamlakatimizda yoshlarning jismoniy etukligini shakllantirish hamda ularning intellektual salohiyatini namoyon qilishga asoslangan Prezidentimiz Farmonlari hamda qarorlari qabul qilindi.

Shu sababli yurtimizda Vatan mustaqilligini mustahkamlaydigan yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash masalalariga jiddiy e'tibor qaratilayotganligi bejiz emas.

Hanuzgacha o'rganilib kelinayotgan o'zbek xalq bayramlari o'zining tarixiy negizlariga ega.

Pedagog, psixolog, adabiyotshunos, tarixchi, etnograf, arxeolog va sohaga doir boshqa ilmiy tadqiqotchilarning e'tirof etishicha bayramlar va tadbirlar insoniyatning butun taraqqiyot davridagi ijtimoiy-madaniy hayoti mazmunini ifodalaydi va keyingi avlodga etkazish bo'yicha poydevor vazifasini bajaradi.

Tadqiqotimiz doirasida biz, mamlakatimiz hududida yashab o'tgan ajdodlarimizning eramizdan avvalgi 3-ming yillik vaqtidagi bayramlari, urf-odatlar, an'analari haqida fikr bildirmoqchimiz.

Meloddan avvalgi 1-ming yillik boshida (30-26 asr ilgari) Markaziy Osiyoda o'troq dehqonchilikning tarkib topishi, ibtidoiy jamiyatning emirilishi natijasida, quldorlik tuzumining paydo bo'lishi, So'g'd, Xorazm, Baqtriya kabi davlatlarning vujudga kelishi, diniy qarashlarning shakllana borishi o'z davriga mos urf-odat, bayram marosim va an'analarni o'tkazish va ularga rioya qilish imkoniyatini hosil qildi.

Ayniqsa, Markaziy Osiyoda zardushtiylik dinining vujudga kelishi natijasida shu qadimiy diniy falsafiy qarashga oid marosim va bayramlar mahalliy aholi o'rtasida keng tarqala bordi. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto" uning "Vispard" naskidagi qo'shiqlar, uchinchi "Yasna" qismidagi 72 bobli qurbonlik marosimi qo'shiqlari va diniy marosimlarga xos

turli rusumlar talqini, to'rtinchi "Yasht" qismidagi mazdoparastlik xudolari va ma'budlariga bag'ishlangan 22 qo'shiq mazmunida keltirilgan diniy marosimlar va urf-odatlarining ifodalanishi ushbu hududlarda qadriyatlarga asoslangan an'analarning takomillashib borishi va rivojlanganidan dalolat beradi.

Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston territoriyasida yashovchi xalqlarning bayramlarini o'rganishda X - XII asrlarda yashab ijod etgan buyuk mutafakkir, qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari o'ta muhim rol o'ynaydi. Beruniy o'zining bu asarida qadimiy xorazmiylar, so'g'dlar, eroniylar, rumliklar, yahudiylar, suriyaliklar, xristianlar, hindlar va boshqalarning kalendaridagi mashhur kunlar, hayitlar va odatlar haqida bebaho ma'lumotlarni bizga qoldirgan.

Islomgacha bo'lgan davrda Markaziy Osiyo, Kichik va old Osiyo hududlarida zardushtiylarning falakiyot ilmiga asoslangan taqvimidan foydalanishgan. Ushbu xalqlarda yilning har fasli, oyida o'z bayramlari va mashhur kunlari bo'lgan. Masalan, "farvardin moh" - yoz boshi, "tir moh" - kuz boshi, "mehr moh" - qish boshi, "diniy moh" - bahorning ilk kuni hisoblangan. Bu oylar ichida to'rt faslga qarab ishlatiladigan eng shukuhli bayram kunlari bor edi", - deydi Beruniy.

Etnogrof tarixchi olim N.P.Lobachev, qadimgi zamonlardan boshlab Markaziy Osiyo hududlarida har yilning boshi bahorning ilk kunlarida nishonlangan deb yozadi. Eron hukmdorlari Sosoniylar yil boshini yozga-ya'ni yozgi quyoshning tik turishi kuniga ko'chirishgan.

Ammo, oy taqvimiga o'tilgandan so'ng, yilning dastlabki oyi yana bahorga, tun va kunduzning baravar bo'lish kuniga 22 martga ko'chirilgan.

Bu haqda Beruniy yozadi: "Navro'z... avvalgi davrlarda... Quyoshning saraton burjiga kirish paytiga to'g'ri kelar edi. Ammo u ortga surilgach, bahor vaqtiga to'g'ri keladigan bo'ldi. Hozir u yil davomida unga xizmat qilinadigan davr, ya'ni bahor yomg'iri birinchi tomchisi tushishidan boshlab, gullar ochilishi, daraxtlar gullashidan mevalari etilguncha, jonzotlarda o'zaro munosabat qilish vujudga kelgancha davom etadigan kunlarda o'zini namoyish etadi. Shu sabab Navro'z olamning yaratilishi va davom etishiga dalil sifatida e'tirof etilgan.

Bayramlar, tabiat hodisalari mohiyatini ifodalash va turli fasllarining o'ziga xos jihatlarini aks ettirgan holda, inson faoliyat natijalarini madh etishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Xususan, islomgacha davrda tashkil etilgan bayramlarning mohiyatini o'rganish tadqiqotimiz uchun muhim ahamiyatga ega.

Bu bayramlar toifasiga - "Tirgon" yoki "Ro'zi tir", "Tir", "tirlama" atamasi hozirgi davrda "kuz" degan ma'noni bildirishini hisobga olsak, bu bayram chindanam kuzda nishonlanishini hisobga olish zarurdir.

"Navro'z" kuni tabiatda jonlanish boshlansa, "Mehrjon" kuni o'suvchi narsalarning chegarasiga etib, o'sish moddalarining undan uzilishi va hayvonlarning nasllanishdan to'xtalishi sodir bo'lgan.

Islom olamida asosan ikkita rasmiy diniy bayram mavjud: Birinchisi bayram - "Qurbon hayit" arabcha nomi-"iyd al kabir", "iyd al-adho", etti kun - hijriy zu-l-hijja oyining 20-13 kunlarida va kichik bayram-"Ro'za hayit" - arabcha nomi "iyd as sag'ir", "iyd al-fitr" esa uch kun shavval oyining boshida xalq tomonidan nishonlangan. Ushbu bayramlarning asosiy ahkomlari - nomoz vaqtida erta turib barcha ibodat ruknlarini istefoda etish hamda bu dunyoni tark etganlar xotirasini yod etib duo va sadaqa ulashishdan iborat hisoblanadi.

Qurbon hayitida haj va qurbonlik qilish, ro'za hayitida esa muqaddas oy nihoyasida og'iz ochish, fitr - sadaqa berish kabi ahkomlar mavjud. Islomda keyinroq yana bir bayram "mavlud" ("mavlud an-nabiy") - Muhammad nabiy s.a.v.payg'ambarimizning tug'ilgan kunlari rabial-avval oyining 12-kunida nishonlana boshlangan. Mavlud bayrami payg'ambar hadsilari hamda payg'ambar sha'niga madhiyalardan iborat she'rlar o'qilib, sadaqalar beriladi, ruhoniylarning yig'ilishlari o'tkaziladi.

Mahalliy xalqlarning bayramlari ham islom dini bayramiga o'z ta'sirini ko'rsatganligini ta'kidlashimiz lozim.

Masalan "Arafa" kuni yon qo'shnilarga pishiriqlar ulashish, "hayitlik", yangi liboslarni

kiydirish, o'zaro oila a'zolari, keksa, bemor, ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlardan xabar olish, Arafa kunida oila a'zolaribilan sayl qilish kabi odatlar islom bayramlarining ham tarkibiy qismlariga aylanib ketgan.

Barcha pedagogik fikrlar taraqqiyoti jarayonida xalqlarning, jumladan, Markaziy Osiyo xalqlarining urf-odatlar, an'analari, hayoti, turmush madaniyati, geografik sharoiti, iqlim, ijtimoiy omillarga xos xususiyatlar tadrijiy asosda shakllanib, taraqqiy etib borgan.

Xulosa. Biz qadriyatlar, milliy qadriyatlarga sodiq qolish, ularning jamiyatda o'rnini belgilashga kirishar ekanmiz, milliy falsafamizning o'ziga xos ravishda namoyon bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Davr o'tishi, vaqt va zamon o'zgarishi, jamiyat taraqqiyoti bilan odamlarning hatti-harakati, turmush tarzi, boshqalar bilan munosabati, mehr-oqibati, o'zaro yordami, ezgulikka intilish shakllana bordi.

Yuqoridagi qadriyatlar tizimi mohiyati va ularning inson hayoti va faoliyatidagi o'rnini hamda ahamiyati nuqtai nazaridan tahlil qiladigan bo'lsak, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy faoliyat va jarayonlarning jamiyat hamda ijtimoiy sub'ektlar uchun ahamiyati, hayotning turli qirralarini aks ettiradigan muammolar xamda ularning echimlarini ifodalaydigan qarashlar, g'oyalar, ta'limotlar, talab va ehtiyojlarning real jarayonlar uchun qadr-qimmatini aniqlash **aksiologik** (qadriyatli) **yondashuv** mazmunini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. И.Н.Каримов Таълим жараёнида талабаларнинг интеллектуал компетентлигини ривожлантириш. Заонавий таълим / Современное образование 2020, 2 (87)
2. Ю. Ф. Курамшин, Акмеология спортивных достижений: Теоретические и прикладные аспекты: дис. д-ра ... пед. наук / Ю. Ф. Курамшин. - СПб.: СПбГАФК, 2002. - 593 с.
3. Q. Nazarov Falsafa: qomusiy lug'at. — T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004
4. Shavkatovich, Hafizov Shahriyor. "O'ZBEK XALQ O'YINLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI." *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2023): 434-434.
5. Shavkatovich, Hafizov Shahryar. "THE ROLE OF AXIOLOGICAL EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF THE PREPARATION OF STUDENTS FOR SOCIAL-PEDAGOGICAL ACTIVITY." *International Journal of Advance Scientific Research* 3.12 (2023): 407-410.
6. Shavkatovich, Hafizov Shahryar. "STUDY OF THE FORMATION OF CIVIL CULTURE OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS BASED ON THE AXIOLOGICAL APPROACH IN PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL SOURCES." *International Scientific and Current Research Conferences*. 2024.